

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI MASHG'ULOTLARIDA TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Maxmudxonov Saidasilxon Azizxon o'g'li

Odilov Saminjon Sobit o'g'li

Jumaboyev Azizbek Akmaljon o'g'li

Ergashaliyev Ro'zali To'ychiboy o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti kursantlari

Annotasiya: Ushbu maqola chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorganlik fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishda texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va xolisona baholash uchun inson salohiyati hamda kompyuter vositalarining o'zaro ta'siri to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, texnologik yondashuv, kafolat, didaktika, tafakkur, component, ilmiy texnika, funksiya.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti insoniyat faoliyatining xamma sohalarini o'sib kelayotgan yosh avlod idrok qilish, informasiyani qabul qilib, uni qayta ishlab, grafikaviy vositalar bilan uzatish qobiliyatiga ega bo'lishiga katta talablar qo'ymoqda. Shuning uchun xam o'quvchilardagi asosiy grafik bilimlar va malakalarning shakllanish samaradorligini o'rganish g'oyat muhim masalalardan biridir.

O'quvchilarda grafikaviy bilim, malaka va uquvlarni tarkib toptirish va ta'lim muassasasi da o'quvchilarning grafikaviy tayyorgarlik istiqbollari bilan bog'liq masalani ilmiy asoslash muhim xususiyatlarini hisobga olinishini talab qiladi.

Odatda har qanday predmet faoliyatining xususiyatiga inson faoliyatining sharoitlari bilan muvofiqlash nuqtai nazardan qaraladi. Ishlab chiqarishning xamma bo'g'inlarini kompleks mexanizasiyalanishi va avtomatlashtirishi inson faoliyatining mazmuniga muhim o'zgartirishlar kiritmoqda.

Ishlab chiqarish funksiyalarining ko'pchilik qismining mashinalarga yuklanishi natijasida mehnat jarayonining ijrochilik qismlarining tashkil etuvchi harakatlantiruvchi operasiyalar birmuncha soddalashib bormoqda. Shu munosabat bilan turli informasiyalarni qabul qilish, ularni fikran o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan aqliy operasiyalarlarning salmog'i ortib bormoqda.

Hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoitida inson mehnatining harakterli xususiyatlaridan biri, uning texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarini boshqarishdagi vositachiligi bilan ifodalanmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fan va texnikaning jadal o'sishi bilan bog'liq muxandislik grafikasining rivojlanishining ob'ektiv tendensiyalari, o'quvchilarning grafikaviy tayyorgarlik jarayonida o'z aksini topmog'i lozim.

O'zbekistonda ta'lim rivojlanishining yangi bosqichiga o'tmoqda, shu munosabat bilan ta'lim muassasasida grafikaviy tayyorgarlikka kuchaytirilgan talablarni qo'yish taqazo etiladi.

Kishilarning obrazli tafakkuri va fazoviy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan talablar uzluksiz ravishda o'sib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanibboradi. Ta'lim jarayoni ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televideniya va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quv uslubiy ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

Didaktik tafakkur bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunini doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi, ta'lim texnologiyasi atamalaridan pedagogik inovasiyalar atamasi mustahkam o'rin olmoqda.

Pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va xolisona baholash uchun inson salohiyati hamda kompyuter vositalarining o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir.

Pedagogik texnologiya o'qitish usuli ma'lum ma'noda ta'lim tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl, xajmini o'zgartirish xam ta'lim texnologiyasiga daxldorlidir. Pedagogik texnologiya ta'lim tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlarini, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim tarbiyaning mazmuni, shakllari, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Pedagogik texnologiya uchun pedagogik amaliyot jarayonlarini belgilash va tasvirlash; o'quvchi yoki talaba kelgusi faoliyatida duch keladigan vazifalarni oldidan aniqlash o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmuni (o'quv rejasi, o'quv elementlari, ularning mantiqiy tuzilmasi o'quv dasturlari, darsliklar)ning belgilash o'quv yuklamasini bolaning kuchiga moslik darajasini va talabaning o'zlashtirish tezligini oshirish; ta'lim tarbiyaning shakllari va vositalari (o'quv

qo'llanmalari, ta'limning kompyuter vositalarini tayyorlash; o'quv jarayonining motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida pridmetning mazmuniga kiritish uchun qo'shimcha ravishda vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash; shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy axloqiy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqarish.

Bularni barchasi ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani darslarida o'quvchilarni ta'lim vositalari haqidagi tushunchalarni shakllantirishda samarali metod shakllarini izlab topish va amaliyotda keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg'ulotlarda, mavzular ustida munozaralar, baxslar o'tkazish, davra suhbatini uyushtirish orqali o'quvchilarning ongida ta'lim vositalari tafakkurini shakllantirish orqali Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.Tilavoldiyevning " Harbiy vatanparvarlik asoslari" darsligi Farg'ona 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida" gi Qonuni,
3. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi,
5. O'zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha Nizomi,
6. «Shunqorlar» harbiy-sport o'yinlarining Nizomi
7. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov «Vatan tuyg'usi»